

# Abu Abdulloh Muhammad Ibn Muso Xorazmiyning didaktik g'oyalari

Umarxon Tuyg'un o'g'li Isayev  
Zokirjon Hamza o'g'li Ismoilov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk mutaffakirimiz Muhammad ibn Muso Xorazmiyning didaktik g'oyalari haqida atroflicha fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** didaktika, pedagogika, ta'lim, olim, deduksiya, hisob-kitob

## Didactic ideas of Abu Abdullah Muhammad Ibn Musa Khorezmi

Umarkhan Tuygun kizi Isayev  
Zakirjon Hamza kizi Ismailov

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after  
Alisher Navoi

**Abstract:** In this article, the didactic ideas of our great thinker Muhammad ibn Musa Khorezmi are discussed in detail.

**Keywords:** didactics, pedagogy, education, scientist, deduction, calculation

Abu Abdulloh Muhammad Ibn Muso Xorazmiyning juda ko'plab sohalarga qo'shgan munosib hissasini ta'kidlab o'tmaslik, albatta, noto'g'ri bo'ladi. Muhammad al-Xorazmiy tarix va musiqaga oid, quyosh soatlari to'g'risida ham asarlari bo'lib, «Tarix kitobi» («Kitob at-tarix») xalifalik tarixiga oid va xalifalikning birinchi tarixchilaridan sanaladi. Shuni ta'kidlash joizki, alloma o'zigacha bo'lgan ilmiy bilimlarning asosiy g'oyalari, metodlarini sintezlashtirdi.

“Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-1 muqobala” asarida olimlarni uch guruhga bo'lib shunday yozadi: “Ulardan biri o'zidan avvalgililar qilgan ishlarini amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi. Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to'playdigan odam bo'lib, u o'zidan avvalgililar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi”.

Bu yerda mutafakkir ilm ahli bo'lmish olimlar to'g'risida so'z yuritar ekanlar bu borada ular uch turli bo'lishini va ular qilgan va boshlagan ishlari bilan yoki boshlangan ishlarni davom ettirishlari bilan bir-birlaridan farqlanishlarini yozganlar. Birinchi olim barcha turdagilardan ko'ra ulardan o'zib ketadi va yangilik yarata oladi demoqdalar. Bu borada u o'zidan keying keluvchilar uchun dasturi amal tayyorlaydi bva ilmni kelajak avlodga me'rops qoldiradi demoqdalar. Bu toifa olimning umri ancha yodda qolarli bo'ladi. Ikkinchi toifa haqida esa o'zidan oldingi olimlarning ilmlarini puxta o'rganib, uni yanada mukammallashtiradi va ochiqlashini aytmoqdalar. Bu toifa yangilik yarata olmasa da, biroq, bu borada o'zidan oldingi ilm ahlining ishini yanada foydaliroq qiladi va kelajak avlod uchun yanada foydaliroq bo'lishini ta'minlaydi demoqdalar.

Uchinchi toifa olimlar nuqsonlar topadilar, sochilganlarni to'playdilar va mag'rurlanmaydilar demoqdalar. Ya'niki ba'zi sohada bi toifa oldingilardan ko'ra kuchliroq bo'lishlarini aytmoqdalar. Birovning ishi odan nuqson toppish yaxshi emas, lekin, ilm da bu zarur amal. Ilm hech qachon bir joyda qotib turmaydivamudom harakatda. Harakatda bo'lishi uchun esa albatta xat6 va kamchiliklar tuzatilmog'i zarur. Bu qarashning didaktikaga qanday aloqasi bor?

Didaktika - pedagogikaning tarmog'i. Ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi. "Didaktika" atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida (1657) bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi Adolph Diesterweg o'zining "Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun yo'riqnoma" (1834-35) asarida didaktikaning pedagogikada ta'lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta'kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. 19-yuzyillikning so'ngi va 20-yuzyillikning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar yaratila boshlandi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda didaktika pedagogika tarmog'i. Ta'limni kimlar beradi? Albatta, yetuk mutaxassislar. Xorazmiy davrida olimlar talabalarga o'z sohlari bo'yicha ta'lim berganlar. Bu borada olimlar haqida so'z yuritish o'rinli deb bilaman. Yana olimlar to'g'risida bildirilgan fikrlarda aynan didaktika na'munalarini ko'rish mumkin. Buyuk mutafakkir ta'lim to'g'risida qayg'urgan.

Muhammad al-Xorazmiy insonning kamolga etishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyati to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan. Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyotchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy o'z davrigacha bo'lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar - Bobil, Yunoniston, Hindiston, Xitoy,

Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o'rgandi va o'zi ulardan farq etuvchi yangi kashfiyotlar yaratdi.

Ushbu ma'lumot ham yuqorida bildirilgan fikrlarni to'griligini isbotlaydi. Ilm-fan faqatgina bir davrga yokida bir insonga tegishli bo'lmaydi. Shuning uchun pedagogika va didaktikaning o'rni beqiyos. Bu barcha zamonlarda o'z tasdig'ini topgan fakt bo'lib kelgan.

Muhammad al-Xorazmiy ta'lim sohasida ham qator ishlarni amalga oshirgan shaxs sifatida tarixda qolgan. Induksiya yo'li bilan umumiy echish usullarini hal etadi, deduksiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida xususiy masalalarni echadi. «Aljabr va-1 muqobala» asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib, o'zidan avvalgi bilmagan usullarni kashf etgan.

Bu ishlari bilan ta'lim sohasida yangilik olib kirgan va zamonasi mukammal asar yarata olgan.

Ulug' mutafakkirning qilgan ishlari faqatgina bu bilan cheklanib olmagan albatta. Alloma sharq mamlakatlari ustida kuzatishlar olib borib, mamlakat va shaharlarning xaritalarini chizadi, nomlar ro'parasiga uzunlik va kenglik darajalarini ko'rsatadi. U geografiyaga oid asarlarida erni etti iqlimga bo'ladi hamda erning xaritasini chizadi. Olimning to'rt xaritasi (Azov dengizi, Nil daryosi, Yaqin va o'rta Sharq xalqlari xaritasi) saqlanib qolgan<sup>1</sup>. Uning yuqoridagi asari ham Sharq va g'arbda katta hamiyatga egadir. 827 yilda Xorazmiy rahbarligida er kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida yer meridianining bir gradusi o'lchab chiqildi. Bag'dodda yozilgan trigonometriyaga oid dastlabki asar ham Xorazmiyga tegishli bo'lib, unda sinus, tangeneslarning o'zgarish qonuniyati ko'rsatiladi. Uning trigonometrik jadvali o'sha davr jadvalaridan farq qilgan Biroq, bu haqida gapiradigan bo'lsak mavzu doirasidan chetga chiqqan bo'lamiz. Alloma ilmiy faoliyatining metodologik jihatlariga katta ahamiyat berdi. Bu borada ancha ishlarni ham amalga oshirdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak olim didaktika va pedagogika ahamiyatini teran tushungan va sohaga o'zining yuksak bilimlari va qilgan ishlari orqali munosib hissa qo'sha olgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1/2), 92-96.
2. Аслонов И. (2022) «Бобурнома» бадий – психологик тасвир муаммоси объекти сифатида. *О'zMU xabarлари. Toshkent – 2022. №1/5.*
3. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) The Problem of Artistic - Psychological Image in Boburnoma. *Eurasian Scientific Herald. Volume 7| April, 2022. ISSN: 2795-7365.*

4. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma" Central Asian journal of theoretical and applied sciences Volume: 03 Issue: 06 | Jun 2022 ISSN: 2660-5317.

5. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3, 710-719. (2023)

6. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3, 734-745 (2023).

7. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995

8. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414

9. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70.

10. Jobborova Gulnoza Kadamovna. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. Eurasian Scientific Herald, 7, 240–242. Retrieved from

11. Jobborova Gulnoza Kadamovna. PEDAGOGIK ODOB-AXLOQ VA TALABA XULQ – MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1/2), Jan., 2023. 97-105.